"TASDIQLAYMAN"
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
akademik litseyi ijrochi direktori
A.Qudratov

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi M 684-SONLI " Davlat xaridlari to'g'risidagi qonuni xamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 avgusdagi M 3237- sonli "Tovarlar (ishlar, xizmatlarining davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida'(gi qarorida belgilangan talablarni bajarilishini ta'minlash maqsadida,Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti akademik litseyining yotoqxona o'quvchilarni issiq oziq ovqat bilan ta'minlash maqsadidi xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlarting davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirish bo'yicha

# TEXNIK TOPSHIRIQ

## 1.Umumiy qoidalar

1.1.Mazkur xujjat Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti akademik litseyining yotoqxona o'quvchilarni issiq oziq ovqat bilan ta'minlash maqsadida xarid qilinadigan Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat vakorporativ xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid qilish bo'yicha Eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazish (keyingi o'rinlarda tanlov deb yuritiladi), jumladantanlash takliflarini berish, uni rasmiylashtirish, ko'rib chiqish va baxolash, tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tuzish tartibini belgilaydi,

1.2. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti akademik litseyi xarid qilish bo'yicha Eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazish O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonuni talablari asosida o'tkaziladi.

## 2. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi

2.1. Tanlash ishtirokchilari (mulkchilik shaklidan qatt'iy nazar, tanlash talablarida ko'rsatilgan asosiy vositalarni yetkazib berish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan tashkilotlar )ning takliflari ip bilan tikilgan, raqamlangan, muxr quyilgan va talabgorning vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan yoki takliflarning xar bir varag'i imzolangan xolda va muxrlangan konvertlarda (konvertning yelimlangan joyiga talabgorning mux.ri bosiladi) taqdim etiladi, unda texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining .xamda boshqa resurslarning mavjudligiga oid ma'lumotlar texnik va tijorat takliflari bilan birga Qarshi shahar Alisher Navoiy 64-A uy manzili buyicha taqdim etiladi.

2.2. Takliflar solingan konvert tanlovni tashkillashtirish va o'tkazishga mas'ul shaxsga Ro'yxatga olish kitobida topshiruvchi (ishonchnomasiga asosan) va qabul qiluvchi shaxslar imzosi ostida, qabul qilishning sanasi va vaqtini qayd etish yuli bilan qabul qilinadi.

2.3. Tanlov talabgori bitta lotga faqat bitta taklif berishga xaqli.

2.4. Tanlov talabgori taqdim etilayotgan ma'lumot va xujjatlarning xaqiqiyligi va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

2.5. Tanlov talabgori taqdim etilgan takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni chaqirib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga xaqli,

2.6. Tanlovga takliflarni qabul qilish e'londa ko'rsatilgan vaqtda tugatiladi.

Сканировано с CamScanner

**3. Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar**

3.1. Shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining xamda boshqa resurslarning mavjudligi.

3.2. Shartnoma tuzish uchun qonuniy xuquqqa egalik.

3.3. Soliqlar va yig'imlarni to'lash buyicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi .

3.4. Unga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-tamoyillarining mavjud emasligi.

3.5. Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida qayd etilmaganligi.

3.6. Tanlash ishtirokchilari tomonidan korruptsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza taqdim etish.

**4. Xarid qilish xujjatlari va xarid qilish tartib-tamoyillari yuzasidan tushuntirishlar**

4.1. Ishtirokchilar xarid qilish xujjatlari va tanlash yuzasidan tushuntirishlar olish uchun murojaat qilishi xaqli va tushuntirish berish to'g'risida so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida, lekin takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, ushbu so'rovga o'rov shakli bilan bir xil shaklda javob taqdim etiladi. Tushuntirishlar olish uchun murojaat qilish tugaydigan sana takliflar berish muddati tugaydigan sanadan ikki kun oldingi kun xisoblanadi.

**5. Ishtirokchini tanlashda ishtirok etishdan chetlatish shartlari.**

5.1. Xarid komissiyasi yoki davlat xaridlari elektron tizimining operatori ishtirokchini tanlashda ishtirok etishdan chetlatadi, agar: u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida qayd mavjud bulsa unda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;

o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-tamoyillari joriy etilgan bo'lsa;

ishtirokchi xarid qilish xujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;

ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-xarakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-tamoyilining qo'llanishiga ta'sir o'tkazish maksadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan xozirgi yoki sobik mansabdor shaxsiga yoki xodimiga xar qanday shakldagi xaqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaxo ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

ishtirokchi raqobatga qarshi xarakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan xolda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik xollari aniqlansa.

**6.Baxolash mezonlariga va tartib-taomillariga taalluqli qoidalar**

Ishtirokchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha davlat xaridlariga

ta'alluqli bo'lgan takliflarini baxolash mezonlarida:

narx;

yetkazib berish bazisi;

yetkazib berish muddatlari;

tavsifnomalar va sifat ko'rsatkichlari;

ekspluatatsiya qilish (foydalanish) muddati;

Сканировано с CamScanner

to'lov va kafolatlar shartlari;

muayyan davrdagi ekspluatatsiya qilishga, shu jumladan foydalanish va ta'mirlashga doir xarajatlar;

## 7. Davlat xaridlari qiymatini baxolashga taalluqli qoidalar

Davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baxolash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanadi.

## 8. Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi

Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Tanlashni o'tkazишda xarid komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi xozir bulishi lozim, xar bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

## 9. Tanlashni o'tkazish

Agar tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda Faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta xam taklif taqdim etilmagan bo'lsa, tanlash o'tkazilmagan deb xisoblanadi. Bunda davlat buyurtmachisi ushbu QONUN talablariga muvofik yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon yoki auktsion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

## 10. Jamiyatning tegishli bulinmalari mas'ullari.

-Jamiyat extiyojlari uchun xarid qilinadigan tovar (ishlar va xizmatlar) uchun buyurtmalar, jamiyatning bo'linmalari mas'ullari tomonidan tanlov o'tkazishdan 15 kun oldin (maxsulot (ishlar xizmatlar) nomi, soni, tavsifnomalar va sifat ko'rsatkichlarni tog''ri ko'rsatgan xolda jamiyat raxbariyati xamda komissiyaga kiritish.

- Tanlov komissiyasining bayonnomasiga asosan, jamiyat raxbari tomonidan belgilangan mas' ullar tomonidan shartnomalar tuzish.shartnomalarda ko'rsatilgan tovar ( ishlar va xizmatlarni) qabul qilish. bunda shartnomalar jamiyatning yuridik xizmati tomonidan qonun talablari asosida tuzilganligini tasdiqlash.

- Jamiyatning moliya bo'limi tomonidan tovar (ishlar va xizmatlar) yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomalarni xisobini yuritish, shartnomalar bo'yicha yetkazib beruvchiga ishonchnomalar (mas'ullar nomiga) berish xamda yetkazib berilgan tovar (ishlar va xizmatlarni) to'liq qabul qilingandan va xujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng to'lovlarni amalga oshirish.

Сканировано с CamScanner